



UDK:102.8(3)

*Aslbek ERGASHEV,*  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi, PhD*  
*E-mail:aslbek.chdpu@gmail.com*

*DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida*

### SHUKUR XOLMIRZAYEVNING TABIAT VA JAMIYAT HAQIDAGI KONSEPTUAL QARASHLARI SINTEZI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Shukur Xolmirzayev ijodining o'ziga xos badiiy xususiyatlari, uning asarlarida inson ruhiyati, muhabbat va hayotiy kechinmalar tasviri tahlil qilinadi. Adib qissalarida badiiy kompozitsiya, obraz yaratish, portret va tabiat tasvirlari orqali qahramonlarning ichki dunyosi ochib berilishi yoritiladi. Shuningdek, rus adabiyoti, xususan Lev Tolstoy ijodining o'zbek nasriga ko'rsatgan ta'siri ham ilmiy mulohazalar asosida talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** Shukur Xolmirzayev, badiiy kompozitsiya, obraz, portret, psixologizm, qissa, badiiy til, inson ruhiyati, muhabbat, Lev Tolstoy, o'zbek nasri.

### СИНТЕЗ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ ВЗГЛЯДОВ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА НА ПРИРОДУ И ОБЩЕСТВО

Аннотация

В данной статье анализируются своеобразные художественные особенности творчества выдающегося представителя узбекской литературы Шукура Холмирзаева, а также раскрывается изображение человеческой психологии, любви и жизненных переживаний в его произведениях. Особое внимание уделяется художественной композиции, созданию образов, портретным характеристикам и пейзажным описаниям, через которые раскрывается внутренний мир героев. Кроме того, с научной точки зрения рассматривается влияние русской литературы, в частности творчества Лео Толстого, на развитие узбекской прозы.

**Ключевые слова:** Шукур Холмирзаев, художественная композиция, образ, портрет, психологизм, повесть, художественный язык, человеческая психология, любовь, Лев Толстой, узбекская проза.

### THE SYNTHESIS OF SHUKUR KHOLMIRZAYEV'S CONCEPTUAL VIEWS ON NATURE AND SOCIETY

Annotation

This article analyzes the distinctive artistic features of the works of Shukur Kholmirezayev, a prominent representative of Uzbek literature, focusing on the depiction of human psychology, love, and life experiences in his writings. Particular attention is paid to artistic composition, character creation, portrait descriptions, and nature imagery, which reveal the inner world of the characters. In addition, the influence of Russian literature, especially the works of Leo Tolstoy, on Uzbek prose is interpreted based on scholarly observations.

**Keywords:** Shukur Kholmirezayev, artistic composition, character, portrait, psychologism, novella, literary language, human psychology, love, Leo Tolstoy, Uzbek prose.

XX asr 60-yillaridan o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega Shukur Xolmirzayevning adabiy qarashlari-yu, yozgan asarlari bugungi kunda ham katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. U.Normatov, N.Eshonqul, M.Qo'chqorova, O.Toshboyev, S.Xolmirzayeva, O.Safarovlar yozuvchi ijodini u yoki bu jihatlarini teran o'rgangan tadqiqotchilardan biri sanaladi. Munaqqid va yozuvchi N.Eshonqul shunday yozadi: "Shukur aka hayotini adabiyotsiz tasavvur qilolmasdi. Adabiyotsiz hayot uning uchun yovvoyilik bo'lib tuyulardi. Adabiyot o'qimagan odamni odam deb tan olmasdi, adabiyotdan yiroq jamiyat bilan murosa qilgisi kelmasdi. Shuning uchun Shukur akani sho'ro tuzumi ko'pam xushlamagandi. Adabiyot Shukur aka uchun ko'zgu edi. Adabiyot xalqning sha'ni, dardi, hasrati, ko'ngli, ruhi edi. Shu sababli ham adabiyotga xiyonat qilgisi kelmasdi. O'z fikriga, o'z qarashiga, o'z o'lchamiga ega edi. Shuning uchun boshqalar yasab bergan o'lchamlarga amal qilmasdi, hammaga o'xshab fikrlagisi, yozgisi, yashagisi, yalingisi, maqtalgisi, turlangisi kelmasdi." Munaqqid va adib N.Eshonqul shunday e'tirof etarkan, bu albatta o'rinlidir. Hayoyotda faqat shaxs va yozuvchi bo'lish hammaga ham nasib etadigan yorliq emas. U o'z asarlariga surxon koloritini olib kirarkan, biroq rus adiblarga xos tanqidiy realizm uni birorta asarini cheklab o'tgan emas. Shuning uchun ham M.Sholoxov va boshqa adiblarni o'ziga ustoz deb bilganida ko'rish mumkin:

"Umida dashtga ketyappiz! Ko'chib ketyapmiz! Jamshid birpasda dashtning nimaligidan tortib, Jalolov bilan onasining o'rtoq ekanigacha, o'zining Tilov bilan o'rtoq bo'lishigacha aytib tashladi.

- Men ham boraman sizlar bilan, - dedi Umida.

- Mayli, - dedi Jamshid. - Obketaman o'zim.  
- Onam qo'ymasa, qochib ketaman-a?  
- Ha. O'zim obketaman. To'xta. Tilovning otasi bilan onam o'rtoq-ku, biz ham o'rtoq bo'lamiz!  
- Umida guruchday qayta chiqa boshlagan tishlarini ko'rsatib jilmaydi.  
- Ke.  
- Seni Tilov bilan ham o'rtoq qilaman.  
- Yo'q, - dedi Umida. - Faqat ikkalamiz o'rtoq bo'lamiz.  
- Mayli rozi bo'ldi Umida.  
- Nima yeding, og'zing ko'k?  
- Ismaloq somsa. Onam, yana terib ke, yana yopib beraman, dedi.  
- Yur, Yetimtepaga. Ismaloq ko'p.  
Umida ichkariga qaytib kirdi. "Ona! Men Jamshid bilan o'rtoq bo'ldim!" - dedi va tesha ko'tarib chiqdi".

Bu rang-barang tasvirlarda ham Sh.Xolmirzayevning katta mahorat egasi ekanligi ayonlashadi. Unda inson qalbining haqli ravishda - muhabbatga oshuvtaligi, yosh murg'aklarning tabiiy yashash tarziga aylanayozgan taqdiri hikoya qilinadi. Lev Tolstoy ana shu tomondan ham o'zbek adabiyotiga katta ta'sir ko'rsata olgan adiblardan biridir. Badiiy kompozitsiya: murakkab tasvirlar fragmentida yanada diqqat bilan anglash imkonini beradi. Chunki badiiylik bor joyda badiiy til ham o'zining o'rnini batafsil bajarishga yo'l topadi. Badiiy til rivoj topmas ekan, qahramonlar ham shunday kechinmalarga ega bo'lmaydi. Axir, obrazli hayot, mashaqqatli kechinmalargina yoyozuvchiga benihoya katta imkoniyat tuhfa eta oladi. Idrok qilinayotgan voqelik hamisha

o'zidan oldingi sifat o'zgarishlariga ham diqqat qaratadi. Buni Sh.Xolmirzayev ijodi misolida ham anglashimiz mumkin.

“SH.Xolmirzayevning diqqat-markazida hamisha inson ruhiy dunyosini, tuyg'u va hissiyotining inkishofi orqali odam hamda olam masalasini ochib berish turadi. Buni hech qachon yalang'och aks ettirmaydi. Balki qahramon faoliyatining tadrijiy tasvirida badiiylilik qolipiga o'rab, kishi ongiga yetkazadi. Qissaning qahramonlari Jamshid, Umida, Tilov va ularning ot-onalari -Jalolov, Zaynabxon. Qissani o'qigan odam qahramonlari faoliyat ko'rsatgan zamon va makonning tiniq tasviridan qalbi yayrab, voqealar ishtirokchisiga aylanadi. Oqibatda qahramonlari o'y-fikri, dardlarini qalbiga singdirib, ongida tahlil qilaboshlaydi. Chunki har bir tasvir bir maqsad sari yo'naltirilgan”. Binobarin, qissaning bosh g'oyasi – har bir davr kishilari o'z tashvishlari bilan yashashi pirovardida, insonning go'zallik qarshisida zabt etilgan va etilmagan orzu-istaklari armonga aylanib qolish mumkinligini ham ko'rsatish sababi aks ettiriladi:

“Kimgadir tegish... Hamma bir... Tilov yaxshi yigit, ham meni sevadi, ham Jamshidning akasi... Jamshiddan o'ch olish... Bo'ldi, bas tamom!”

Umida eshikka qarab yurgan edi, tokchasida yotgan, bir vaqtlar tug'ilgan kunida Jamshid taqdim etgan Lermontovning she'rlar to'plamini ko'rib qoldi-yu, borib shart oldi, boshiga ko'tardi. Ammo muqovadagi shoir rasmiga ko'zi tushib, bo'shshadi, asta joyiga qo'ydi va shart ochdi. Ko'zi tushgan birinchi misrani o'qidi:

Men yashash istayman, istayman g'amni,

Muhabbat va baxtga achchiqma-achchiq.

Umida ichida yana takrorladi va bundan titroq barmoqlari bilan ko'zlarini bektdi. Uning hamma o'ylari, kechinmalari go'yo bir nuqtada uchrashdi. So'ng barmoqlari orasidan qaradi. O'zini qandaydir qorli nishab betdan sirpanib, sirli, tumandan dunyoga tushib borayotganday his qildi: pastda uni kutib oluvchi qandaydir ayol sharpalari ko'rinardi...”

Mana shu ikkilanishlar qahramon taqdirini sinovdan o'tkazadi. Har ikki ora yo'lda qolgan Umida o'zi kimni sevishini bilmay, beadog' iztirob chekadi. Qissadagi eng xarakterli nuqta ham mana shu lavhada joylashgan. Yoshlikdan birga o'ynab-o'sib katta bo'lgan uchta do'st orasidagi samimiy munosabatlarga asta-sekinlik bilan darz keta boshlaydi. Qissadagi vislosiz ishq, erisholmagan pok muhabbat kechinmalari, dashtu dalalarda o'tgan sohir orzular o'quvchini juda qayg'uga soladi. Kitobni bir o'tirishda mutolaa qilish mumkindir. Masala shundaki, davr muammolarini haqqoniy chizib berish, ayniqsa, tabiat manzaralari bilan uyg'un bir alfozda ko'rsatish faqatgina mahoratli yozuvchilar qo'lidan kelishi shubhasiz. Shuni qayd etish lozimki, L.Tolstoy boshlab bergan tadrijiy an'ana juda ko'plab yozuvchilarga ilhom va shijoat bergani rost. Buni yillar davomida sayqallab, sinchiklab o'rganish, o'z ustida tinimsiz mehnat olib borish lozimligini unutmaslik lozim.

“Kompozitsiyaning mohiyati, funksiyasi va ahamiyati haqida qarashlar mushtarak bo'lsa-da, uning elementlari – kompozitsion birliklar masalasida turlicha fikrlar mavjud. Jumladan, ayrim mutaxassislar asarning bitta tasvir shakli (rivoya, tavsif, dialog, monolog, ichki monolog, maktub, lirik chekinish kabi) saqlangan qismini, boshqa birliklari esa uning bitta nuqtai nazaridan tasvirlangan qismini bitta kompozitsion birlik hisoblaydilar. Shuningdek, kompozitsiyaning asar nutqiy qurilishidan kelib chiqqan holda tavsiflash an'anasi ham mavjud. Xullas, manbalarda o'rganilayotgan masala bo'yicha qarashlarning bir-biridan farqlanishini hamisha yodda tutish, ularni tanqidiy-qiyosiy yogdoshgan holda o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir”. Binobarin, kompozitsion birliklar modusi har bir asarda yozuvchi ijodiy konsepsiyasi, maqsadi, ifodalash manerasi, matn tarkibi, g'oya va mazmun birligi bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Nutq qurilishidan boshlab, badiiy voqelikka, muallif pozitsiyasi bilan yaxlitligi – kompozitsion unsurlar tabiatini belgilaydi.

Munaqqid A.Rasulov yozishicha: “Psixologik belgilar portret tasvirida aniq ko'rinadi. Mohir san'atkor qahramonning portreti orqali uning qalbini chuqur yoritadi. Portret chizilmagan yirik bir asarni uchratish qiyin. Lekin har bir yozuvchi portret

masalasini o'zi hal qiladi. Ayrim san'atkorlar asarni portret tasviridan boshlasalar, boshqa birlari qahramonning xatti-harakatlari orqali portretini yaratadilar. Yana bir guruh yozuvchilar portret va harakatni parallel ko'rsatadilar. Demak, portretni qachon, qanday tasvirlashning aniq ko'rsatmasi yo'q. Ammo portret bilan xarakter yo'nalishi orasida birlik bo'lishi, portret qahramon qalbini yoritishga xizmat qilishi lozim. Lev Tolstoy muayyan obraz ustida ishlar ekan, avvalambor, xarakter “kalit”ni topishga intilgan. Shu maqsadda u qahramonning hayoti, xarakteriga oid ko'p materiallarni o'rgangan. U butun diqqatini “qalb dialektikasi”ga jalb etgan holda qahramon portretini chizgan”. Munaqqid A.Rasulov keltirib o'tgan ta'kidlar juda o'rinni ekanligini hisobga olib, ikki jihatga yana to'xtalish lozim: birinchidan, har qanday portretni jiddiy ishlash uchun yozuvchi hayot materialni puxta bilishi bilan o'zi anglagan olam (ijodiy arxetip)ni o'ziga xos tarzda idroklashi muhim; ikkinchidan, o'sha konseptual qarashlar negizida mavjud voqelik ming bora qayta-qayta ishlanmasin, unda obrazlilik bo'lmog'i shart. Mana shu muhim belgilar – tabiat haqidagi tasvirdami, insonning ichki psixologik holati xususidagi ifodalardami yaqqol seziladi. Demak, qahramonning hayotiga daxldor asarda nimaiki mavjud uni “yangidan kashf” qilish uslubini ham sayqallashi shartligi ayonlashadi. Bir tomondan, insonning “yashash mantiqi” uning o'z hayot prinsiplarini yuzaga chiqaribgina qolmay, tarixiy ildizlarga ham borib tutashuvini taqozo etadi:

Yozuvchi L.Tolstoyning “Hojimurod” qissasidagi badiiy bo'yoqdorlik negizida u doim tinchlik tarafdori ekanligini, insoniyat bir-biriga dushman emas, do'st va kamarbasta bo'lib yashash lozimligini uqtirib, shunga amal qilib yashaganligida ko'rinadi. Savol tug'iladi? Graf Tolstoyning nega bunchalik Hojimurod qismati qiziqtiradi? Uningiz ham ko'plab mashhur asarlar yozib, elga ancha tanilib ulgurisan, o'z qo'llari bilan Nobel mukofotini keskin rad etganligining sabablari nimada? Yozuvchi butun insoniyatga bo'lgan muhabbatini o'z asarlari bilan izhor qilarkan, hali ko'nglining kentlikliklarida bu qadar ayanchli iztiroblar izlari yashayotganini bilish qiyin emas:

“Hojimurod, o'z qahramonliklari bilan dong chiqargan, biror yoqqa borganida tug' ko'targan,atrofida ot o'ynatib, uni kuzatib boruvchi o'nlab muridlarsiz yurmaydigan Shomilning noibi edi. Hozir u, ostidan miltiq turtib chiqib turgan kigiz chakmonga o'ralgan, quloqchisini bostirib kiygan holda, mumkin qadar o'zini tanitmaslikka tirishib, yo'lda uchragan ovul ahllarining yuzlariga o'ynoqi qora ko'zlari bilan yashirin nazar tashlab, bittagina muridi bilan bormoqda edi.

Hojimurod ovulning o'rtasiga kelgach, guzarga chiqadigan yo'l bilan ketmasdan, chapga – tor ko'chaga burildi. U, tepalikdagi ikkinchi uyning oldiga kelgach, atrofiga qaranib to'xtadi. Uy oldidagi bostirmada hech kim yo'q, tomda esa yaqindagina suvalgan mo'ring orqasida po'stinga o'ralgan bir kishi yotar edi. Hojimurod u kishini qamchisining sopi bilan turti va qattiq yo'taldi. Po'stin ostidan boshida tungi qalpoq, ustida yag'iri chiqib ketgan eski nimcha kiygan bir chol ko'tarildi. Cholning kipriksiz ko'zlari qizil va namli edi, u yopishqoq ko'zlarini ochmoqchi bo'lib pirillatdi. Hojimurod odatdagi salom alaykumni aytgach, yuzini ochdi”.

Tadqiqotchi O.Safarov: “Ijodkor hayoti va ijodini bir-biridan ajratib bo'lmasligini ta'kidlarkan, bu borada ulug' yozuvchilar faoliyatiga ham ayni shu nuqtai nazardan yondashadi. Lev Tolstoy, Ernest Xeminguey, Mixail Sholoxov, Abdulla Qahhor singari so'z san'atkorlari hayotidagi ibratga munosib jihatlar asarlarining o'ziga xosligiga zamin yaratganini qayd etadi. Xususan, Lev Tolstoy tabiatidagi donishmandlik, Ernest Xemingueyning qahramon holatini bevosita ko'rish-his qilish uchun urushga borgan, Abdulla Qahhorning kamgap, hikmatomuz so'zlash tarzi ularning asarlarida u yoki bu shaklda namoyon bo'lganiga e'tibor qaratadi. Ijodkor shaxsi masalasi adib uchun muhim ahamiyatga egaligini shundan ham bilish mumkinki, u aksariyat adabiy-tanqidiy maqolalarida, suhbatlarida ijodkor qanday inson bo'lishi, qanday hayotiy a'mollarga rioya etishi zarurligi, nimalardan saqlanmog'i kerak degan savollarga javob izlaydi. Bunday o'rnlarda u hammani bir qolipga solishga, barcha

uchun umumiy, yakrang mezon yaratishga urinmaydi, balki umuminsoniy haqiqatlar bayonida hammaga xos bo'lgan o'leholarni keltirib o'tadi". Bunday iqrortar, tavsiflar XX asr adabiyoti manzaralarini yanada teranoq anglash uchun katta bir imkoniyatdir. Unda millat sajiyasi, vatanparvarlik, olijanoblik, umubashariylik kabilar hayotiy aqidalarni tartiblashtiradi. Badiiy kompozitsiya unsurlari, portret dinamikasi ruhiyatni anglash uchun zinapoyadir. Botin dardi, millat taqdiri hamisha yozuvchi oldida birlamchi vazifa bo'lishi tayin.

Umuman, rus adabiy-badiiy hayotining XX asrda o'zbek nasriga ta'siri ikki jihatni qamradi: poetologik konstruksiya yangilandi va ijtimoiy-madaniy hayot uchun turli hil mavzular qayta ishlandi. Ana shu ikki jihat yangi davr nasrida syujet va

kompozitsiyani to'laqonli poetik matritsa shakllanuviga muayyan asos bo'lib xizmat qildi. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, graf Lev Tolstoy hatto Shekspirni ham ayab o'tirmasdan tanqid qilgan. Davrning ruhini anglagan, insoniyatga ulkan muhabbat bilan qaragan yozuvchi Gi De Mopassanning "Azizim" romanini esa o'ta iflos, yaramas roman deb baholaydi. Unda tasvir etilgan voqelik insonni ulug'lovchi emas, yo'ldan ozdiruvchi tasvirlar bilan limolim ekanligini isbotlaydi. Demak, yozuvchi dunyo adabiyoti bilan sirlashgan, undan katta konsepsiyalarni izlagan, umumbashariylik mezonlarini solishtirgan, hayotda g'urba va iztirob bilan yashagan, faqirlik uning eng yaqin do'sti bo'lgan degan xulosaga kelamiz. Bu islom dinini qabul qilib, Allohga iymon keltirganini ham to'laqonli anglash muhimligini dalolatlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimov H. Adabiy portretlar. –T., "Yangi nashr". 2017. –B. 163.
2. Quronov D. Nazariy qaydlar. –T.: Akademnashr. –B.4.
3. Lev Tolstoy, Hojimoreod. –T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1978. –B2-3.
4. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. –T., Sharq. 2007. –B.186-187.
5. Xolmirzayev Sh. O'n sakkizga kirmagan kim bor? –T., "Yozuvchi". 1998.-B.8.
6. <https://sharqyulduzi.uz/2024/02/07/shukur-xolmirzayev-haqiqatlari/>
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-adabiyot-yozuvchi-va-ijod-haqida.html>